

O'ZBEK AYOLLAR NUTQINING YOSH JIHATDAN XOSLANISHI

Abdurasulova Dilnoza

Alisher Navoiy nomidagi ToshDO'TAU doktoranti

Annotatsiya: Maqolada ayollar nutqi yosh xususiyatiga ko'ra qizlar nutqi, o'rta yoshli ayollar nutqi va katta yoshli ayollar nutqiga ajratilib tahlil qilingan. Shuningdek, o'zbek ayollari nutqida keng qo'llaniladigan so'zlarga munosabat bildirilib, ularning yosh bilan bog'liq o'ziga xos jihatlari misollar yordamida olib berilgan.

Kalit so'zlar: Muloqot, ayollar nutqi, nutqiy ta'sirchanlik, qizlar nutqi, o'rta yoshli ayollar nutqi, katta yoshli ayollar nutqi, nutqiy akt.

Annotation: In the article, women's speech is analyzed, divided into girls' speech, middle-aged women's speech and older young women's speech according to young opportunities. Also, the attitude towards the words that are widely used in the speech of Uzbek women is expressed, and their specific aspects related to age are revealed with the help of examples.

Keywords: Communication, women's speech, age attitude, speech effectiveness, girls' speech, middle-aged women's speech, adult women's speech, speech act.

Til kishining dunyoqarashi, xulq-atvori, tabiat, madaniyati, tarbiyasi, ijtimoiy holatini aks ettiruvchi muhim vosita hisoblanadi. Nutqning tabiatni o'zgaruvchan bo'lib, bu holat quyidagi omillar ta'sirida yuz beradi:

- 1) so'zlovchining yoshi;
- 2) so'zlovchining gender jihat;
- 3) so'zlovchining ijtimoiy mavqe.

Shuningdek, muloqot ishtirokchilarining nutqi ularning hududiy xosligi, mehnat faoliyati va qanday fe'l-atvorini namoyon etuvchi vosita hamdir. Kishilarning yoshiga ko'ra farqlanishi ularning nutqida ham aks etadi. Bunday farqlanish har bir millatning milliy o'ziga xosligini namoyon etadi. Demak, insonning nutqi ham uning yoshi haqida ma'lumot beradi.

Jamiyatda ayollar nutqi ijtimoiy mavqeyi va yosh darajasiga ko'ra ham bir-biridan farqlidir. Ayollar nutqi ko'pincha ularning tabiat, hududiy xoslanishi, milliy urf-odatlari, kasbiy faoliyati, faoliyat turi, ijtimoiy muhitning ta'siriga ko'ra farqlanadi. Ayollar nutqini yosh darajasiga ko'ra qizlar, o'rta yoshli ayollar va katta yoshli ayollar nutqi kabi guruhlarga ajratish mumkin.

1.Qizlar nuqi:

- 1.1. Kichik yoshdagagi qizlar nutqi (4-5 – 9-10 yosh).
- 1.2. O'smir qizlar nutqi (11-12 yosh).
- 1.3. O'spirin qizlar nutqi(14-15 yosh).
- 1.4. Balog'at yoshiga yetgan qizlar nutqi(16-17 – 30 yoshgacha).
2. O'rta yoshli ayollar nutqi (32-35 – 50 yoshgacha).
3. Katta yoshli ayollar nutqi (50 va undan yuqori yoshgacha).

Qizlar, o'rta yoshli va katta yoshli ayollar nutqi bir - biridan farqlanadi. Masalan, o'smir qizlar nutqi hissiyotga boyligi bilan ajralib turadi: – **O'rtoqjon**, – dedi, – otam avrodda o'tirib qoldi, shekilli, shunaqa odati bor. Endiyoq kirib kelsa kerak. Xafa bo'lman-a? (Cho'lpon, Kecha va kunduz.) Abdulhamid Cho'lponning "Kecha va kunduz" romanidan olingan mazkur mikromatn mazmunini shunday izohlaydi: Bu so'nggi kalta jumlaning aytilishidagi samimiyat bir-biri bilan yaqin o'rtoq tutishgan yosh qizlardagina bo'ladi. "Xafa bo'lman-a?" deb turgan vaqtida Zebining yuzini ko'rish kerak edi, bir qo'lida supurgi, bir qo'li tizzasida, supurgi ham yerdan uzib olingan emas, faqat bosh yuqori ko'tarilganu, butun vujud Saltining ixtiyorida! Ko'ngil, orzu, sevgi, sevinch...bular hammasi Saltiga tomon

PEDAGOGIK ISLOHOTLAR VA ULARNING YECHIMLARI

<https://worldlyjournals.com>

1-IYUN, 2024

uchadi, unga tomon otiladi, uni o‘rab, uni aylantirib, uni quchadi! Zebining yuzlaridagi – oyday tiniq va quyoshday yorug‘ bu holat moddiy haqiqatlar qadar ochiq ko‘rinardi.

Qizlar o‘rtasida dugon, dugosh, o‘rtoq kabi murajaat shakllarini qo‘llash bilan birga jonim, asalim kabi so‘zlardan ham keng foydalaniladi: “–Voy, aylanay! Enaxon, **jonim** o‘rtog‘im! Bormisiz? – deb paranjisini olib Salti yugurdi. (Cho‘lpon, Kecha va kunduz.)

– **Asalim**, qalaysiz? Tabriklayman, farzand muborak bo‘lsin! (Sotvoldiyeva Mahliyo, 29 yosh)

Qizlar nutqida keng uchrovchi asalim, jonim ifodalari ular o‘rtasidagi samimiymunosabatdan ko‘ra nutqni ishonchli, jozibador tarzda aks ettirish uchun ishlataladi va ko‘pincha bu holatning soxta mulozamat ekanligi tinglovchiga sezilib turadi.

Qizlar nutqi fonetik jihatdan katta yoshli ayollar nutqidan ancha qisqa, keskin, pauzasiz bo‘lishi bilan ajralib turadi. Nutqiy muloqot jarayonida qizlar tomonidan ismlarning qisqartirib ifodalanish holatlari ham ko‘p kuzatiladi. Masalan, Mohidil – Mohi, Nozima-Nozi, Nazokat-Nazo, Gulnoza- Guli, Madina-Madi.

– **Madi**, qachon kelasan Toshkentga, bolachalaring bilan kelasanmi? (Raxmonova Zilola, 28 yosh)

Muayyan darajada bosiqlik, mulohazalilik, so‘zlarni o‘z o‘rnida qo‘llash va shu bilan birga fikrni to‘g‘ridan-to‘g‘ri ifodalamasdan implakatura birlklari orqali aks ettirish ayollar tabiatiga xos xususiyatlar hisoblanadi. Masalan: - Oydinko‘ldagi Xalfa eshonimizning kichik qizlari bir-ikkita o‘rtog‘ini “bahorlashib kelinglar”, deb chaqirtirgan ekanlar. Shularning bittasi Zebi, yana bittasi uning o‘rtog‘i Saltanatxon ekan. Saltanatxon aravani qo‘shtirib qo‘yib, o‘zi Zebini aytgali kelibdi. “Yo‘q”, desak qanday bo‘ladi. (Cho‘lpon, Kecha va kunduz.)

Matnnning keyingi qismida Qurvonbibining qizini mehmonga yuborish maqsadiga erishish uchun yolg‘on ishlatgani anglashiladi. Zebining: “Enam gapga usta. Eshondan tushganini ko‘ring. Eshon desangiz, otam o‘lganini ham bilmaydi” – deyishi, Qurvonbibi erining nozik tomonini bilgani uchun eshon nomini qo‘shgani ma’lum bo‘ladi. Qurvonbibiga bu o‘rinda rost so‘zlash muhim emas. Uning uchun muhimi ruxsat olishdir. Hayotiy tajribaga ega bo‘lgan, yaqinlarining fe’l-atvorini yaxshi biladigan ayollar nutqida yolg‘on so‘z bilan maqsadiga yetishishni muallif mahorat bilan ko‘rsatib bergen.

Katta yoshli ayollarga xos hayotiy tajriba, salobat, pand-nasihat tarzida muloyimlik bilan so‘zlash, hikmatli so‘zlarni qo‘llash, olqish, duo mazmunidagi qarg‘ishlardan foydalanish xususiyatiga ega ekanligi bilan ajralib turadi. Shuningdek, ular pand-nasihat qilish orqali nutqiy ta’sirchanlikka erishadilar. Bu hodisa ayniqlsa, o‘zbek ayollarini nutqida ko‘p uchraydi. Ular nasihatomuz fikrlarni uzun jumlalar orqali ifodalaydilar, rivoyatlar, hadislardan olingen misollar bilan fikrni asoslab, nutqning ishonchlilagini oshiradilar. Katta yoshdagisi o‘zbek ayollarining uzundan uzun duo qilishi esa shu xalq mentalitetiga xos xususiyatdir. Suhbatdosh sha’niga duo qilish, aksariyat hollarda, yoshi ulug‘ o‘zbek onaxonlari nutqida kuzatiladi¹.

Husniya hammaga qulluq qilib ta’zimga egildi:

– Ilohi omi-in! – Oyim kosovdek qo‘llarini fotihaga ochdi. – Omon-eson kelganining rost bo‘lsin, bolam! Jumla-mo‘minni dilidagi niyatiga yetkazsin. U dunyoyu bu dunyo urush bo‘lmisin! Suv balosidan, o‘t balosidan, tuhmat balosidan yaratgan Egamning o‘zi asrasin! (O‘.Hoshimov, Hadikli tushlar.)

O‘zbek ayollarini nutqining ayrim xususiyatlari yuzasidan tadqiqot o‘tkazgan Sh.Iskandarovaning fikriga ko‘ra, “aylanay”, “o‘rgulay”, “girgitton”, “qoqindiq” singari so‘zlar ijobjiy ma’no nozikligini ifodalovchi leksik vositalar hisoblanadi, ular ko‘proq keksa

¹ Каримова З.Г., ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрагматик хусусиятлари. Ф.ф.д. (DSc) дисс.. 2020

ayollar tomonidan nutqiy odatning turli vaziyatilarida qo'llanadi². Yoshi katta ayollar nutqida barakalla, balli, yashang, aylanay, qoqindiq kabi ijobjiy ma'no ifodalovchi so'zlar faol qo'llanadi.

– **Aylanay**, qizim, nahotki boshingga davlat qushi qo'nsa-yu, uni kaltaklab, o'zing quvlasang! (Hamza, "Boy ila xizmatchi")

– **Aylanay**, bolam, patiringni yop! Kechga qolayotirsiz. Bu siz aralashadigan ish emas! (Cho'lpon, Kecha va kunduz.)

Aylanay, o'rgilay so'zлari suhbatdoshning jinsi yoki yoshidan qat'i nazar, ularga nisbatan qo'llanadi bu orqali nutqiy ta'sirchanlikni ta'minlashga erishiladi. Kuzatuvarimiz davomida aniqlanishicha, bugungi kunda mazkur birliklar o'rta yoshli ayollar va yosh onalar nutqida ham ko'p ishlatiladi. O'rgilay, o'rgilib ketay, onang (buving, xolang, ammang va h.) o'rgilsin, aylanay, aylanib ketay, onang (buving, ammang va h.) aylansin kabi erkalash ma'nosida qo'llanuvchi so'zlar o'rta yoshli ayollar nutqida ham keksa ayollar nutqida ham birdek ishlatiladi.

Aksariyat o'zbek ayollari ko'nglining ochiqligi, so'zga chechanligi, dilkash va dilbarligi bilan boshqa xalq ayollaridan ajralib turadilar. Ayniqsa, inson ko'nglini asrash, unga muloyimlik bilan yo'l topish bobida o'zbek ayollarining oldiga tushadigani kam topiladi³. Ayollar nutqini o'rganishda ularning yosh xususiyatlariga alohida e'tibor qaratish maqsadga muvofiqdir. Qizlar, o'rta yoshli va keksalar ayollar nutqidagi til belgilarining tadqiq etilishi muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu holat ularning nutqida milliylik, o'zbek tilining ifodali imkoniyatlarini namoyon etadi. Xulosa sifatida aytishimiz mumkinki, ayollar nutqining ilmiy jihatdan tadqiq etilishi zamонави о'zbek tilshunosligida amaliy yechimini kutayotgan masalalardan biridir.

Foydalaniman adabiyotlar ro'yxati.

- 1.Курбонова М.А. Ўзбек болалар нутқининг прагматик хусусиятлари: ф.ф.номз. ...дисс. – Тошкент, 2009.
- 2.Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Фарғона: 2021.
- 3.Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дисс. автореферати. – Самарқанд, 1993. – 26 б.
- 4.Каримова З.Г. Ўзбек ва инглиз тилларида сўз-гапларнинг социопрагматик хусусиятлари. Ф.ф.д. (DSc) дисс.. 2020
5. Cho'lpon. Kecha va kunduz. – Toshkent: G'.G'ulom nomidagi NMIU, 2017. – 271 b.

² Искандарова Ш. Ўзбек нутқ одатининг мулоқот шакллари. Филол. фанлари номзоди илмий даражасини олиш учун тақдим этилган дисс. автореферати. – Самарқанд, 1993. – Б. 19

³ Мўминов С. Ўзбек мулоқот хулқининг ижтимоий-лисоний хусусиятлари. – Фарғона: 2021. – Б. 185